

NODAVLAT SUD-EKSPERTIZA TASHKILOTI SUD EKSPERTLARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda — «Oferta») O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2022 yil 25 fevralda berilgan № SF 00042-sonli litsenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi «Imkon-Sug'urta» aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o'rinlarda — «Sug'urtalovchi») nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — «Sug'urta qildiruvchi») bilan nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasini (keyingi o'rinlarda — «Majburiy sug'urta shartnomasi») mazkur Ofertada nazarda tutilgan shartlar asosida tuzish to'g'risidagi rasmiy taklifidir.

1.2. Mazkur Oferta O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 noyabrdagi 706-son qarori bilan tasdiqlangan «Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Oferta Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti va/yoki axborot tizimiga joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

1.4. Sug'urta qildiruvchi tomonidan Majburiy sug'urta shartnomasini tuzish uchun elektron ariza shaklini to'ldirish, mazkur Oferta shartlarini qabul qilish va sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchining mazkur Oferta shartlarini to'liq va hech qanday e'tirozlarsiz qabul qilganligini anglatadi.

1.5. Sug'urta qildiruvchi tomonidan mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi (aksept qilinishi) natijasida Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida Majburiy sug'urta shartnomasi elektron shaklda tuzilgan deb hisoblanadi.

1.6. Sug'urta polisi Majburiy sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi va axborot tizimi orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

2. SUG'URTA OB'EKTI, SUG'URTA SUB'EKTLARI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Majburiy sug'urta shartnomasi nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tartibini belgilaydi.

2.2. Majburiy sug'urta sud ekspertlari tomonidan sud-ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish natijasida zarar yetkazilgan shaxslarning mulkiy manfaatlarini sug'urta tovonini to'lash orqali himoya qilishga qaratilgan.

2.3. Mazkur Ofertada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

sud eksperti — xulosa berish uchun zarur bo'lgan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan hamda belgilangan tartibda sud eksperti etib tayinlangan jismoniy shaxs;

naf oluvchi — sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan shaxs;

nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti — belgilangan tartibda tashkil etilgan va sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

Sug'urta qildiruvchi — Sug'urtalovchi bilan Majburiy sug'urta shartnomasini tuzgan nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti;

sug'urta mukofoti — Sug'urta qildiruvchi tomonidan Majburiy sug'urta shartnomasiga muvofiq Sug'urtalovchiga to'lanadigan pul mablag'lari summasi;

sug'urta summasi — sug'urta hodisasi yuz berganda mazkur Oferta va Majburiy sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq Sug'urtalovchining to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatining eng yuqori miqdori;

sug'urta tovon — Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchiga sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi;

sug'urta hodisasi — Majburiy sug'urta shartnomasi amal qilgan davrda sud ekspertining harakatlari yoki harakatsizligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxsga mulkiy zarar yetkazilganligi qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlangan hodisa;

sug'urtalovchi — Majburiy sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan yuridik shaxs;

sud ekspertining fuqarolik javobgarligi — sud ekspertizasini o'tkazish natijasida jismoniy yoki yuridik shaxsga va/yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash majburiyati;

uchinchi shaxs — Majburiy sug'urta shartnomasining taraflari bo'lmagan hamda sud eksperti tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish jarayonida amalga oshirilgan harakatlar natijasida mulkiy zarar yetkazilgan shaxs.

3. SUG'URTA SUMMASI VA SUG'URTA MUKOFOTI

3.1. Majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshiruvchi har bir sud eksperti uchun qonunchilikda belgilangan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas.

3.2. Sug'urta mukofotining miqdori amaldagi qonunchilik va mazkur Oferta shartlariga muvofiq belgilanadi.

3.3. Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan axborot tizimida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda to'lanadi.

3.4. Sug'urta mukofotining to'lanishi mazkur Oferta shartlarining aksept qilinganligini tasdiqlovchi harakatlardan biri hisoblanadi.

4. SHARTNOMANI TUZISH VA UNING KUCHGA KIRISHI

4.1. Majburiy sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchining arizasi asosida mazkur Oferta shartlarini qabul qilish va sug'urta mukofotini to'lash yo'li bilan elektron shaklda tuziladi.

4.2. Sug'urta qildiruvchi tomonidan mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va sug'urta mukofotining to'lanishi uning mazkur Ofertada belgilangan barcha shartlarga roziligini anglatadi.

4.3. Majburiy sug'urta shartnomasi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda Sug'urta qildiruvchi tomonidan Ofertaning aksept qilinishi va sug'urta mukofotining to'lanishi paytidan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi.

4.4. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari Nizom va Sug'urta polisida belgilangan tartibda kuchga kiradi.

4.5. Agar qonunchilikda yoki Sug'urta polisida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Majburiy sug'urta shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

4.6. Sug'urta polisi Sug'urtalovchining axborot tizimi orqali elektron shaklda rasmiylashtiriladi va Sug'urta qildiruvchiga taqdim etiladi.

5. SUG'URTALOVCHI VA SUG'URTA QILDIRUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urtalovchidan Oferta shartlari, shu jumladan o'zining huquq va majburiyatlari to'g'risida tushuntirishlar talab qilish;
- Sug'urtalovchining moliyaviy hisobotlari bilan tanishish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarda sug'urta tovonini olish;
- Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarorini belgilangan tartibda sud orqali shikoyat qilish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

5.2. Sug'urta qildiruvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Sug'urtalovchiga Majburiy sug'urta shartnomasida belgilangan miqdorda, tartibda va muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash;
- Sug'urtalovchiga mazkur Ofertada nazarda tutilgan ma'lumotlarni taqdim etish;
- sug'urta hodisasi bilan bog'liq holda unga qo'yilgan barcha talablar, shuningdek unga nisbatan boshlangan sud muhokamasi to'g'risida Sug'urtalovchini zudlik bilan xabardor qilish; zarar yetkazilishi holatlari to'g'risidagi mavjud barcha ma'lumotlarni, shuningdek sug'urta hodisasining sabablari va oqibatlarini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan vakolatli organlardan olingan hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etish;
- sug'urta hodisasi yuz berganda yetkazilgan zararining oldini olish va (yoki) uning miqdorini kamaytirish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rish;
- uchinchi shaxslarning yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari bilan bog'liq masalalarni hal etishda Sug'urtalovchining ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasining yuz berishi uchun javobgar shaxsga nisbatan regress tartibida talab qilish huquqining o'tishini ta'minlash;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

5.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urta qildiruvchidan sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ilgari tuzilgan shartnomalar, sug'urta hodisalari, sug'urta to'lovlari, shuningdek Majburiy sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish;
- uchinchi shaxslarning yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari bilan bog'liq masalalarni hal etishda ishtirok etish;
- mazkur Ofertada nazarda tutilgan hollarda zarar yetkazilishi uchun javobgar shaxsga nisbatan regress tartibida talablar qo'yish;
- mazkur Oferta va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda sug'urta tovonini to'lashni to'liq yoki qisman rad etish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

5.4. Sug'urtalovchi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Sug'urta qildiruvchini Oferta shartlari bilan tanishtirish, shu jumladan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda Majburiy sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotini to'liq yoki qisman qaytarish;
- sug'urta hodisasi yuz berganligini va Sug'urtalovchi tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar yetarli bo'lmagan taqdirda, ular olingan kundan e'tiboran uch ish

kuni ichida ariza beruvchini taqdim etilmagan va (yoki) lozim darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlarning to'liq ro'yxatini ko'rsatgan holda xabardor qilish;

- sug'urta hodisasi yuz berganda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarda sug'urta to'lovini amalga oshirish;
- Sug'urta qildiruvchidan (Naf oluvchidan) ariza kelib tushganda, Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchining) talablarini ko'rib chiqish va besh ish kuni ichida nizoni hal etishning keyingi tartibini ko'rsatgan holda yozma javob taqdim etish;
- sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchi tomonidan zararning oldini olish va (yoki) uning miqdorini kamaytirish maqsadida qilingan xarajatlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarda qoplash;
- o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida olingan Sug'urta qildiruvchi, uchinchi shaxslar va Naf oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

6. SUG'URTA HODISALARI VA SUG'URTA TOVONINI TO'LASH

6.1. Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga qonunchilik va mazkur Ofertada nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etiladi.

6.2. Sug'urta tovonini to'lash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati, shuningdek ularni taqdim etish tartibi va muddatlari amaldagi qonunchilik va mazkur Oferta talablariga muvofiq belgilanadi.

6.3. Sug'urta tovonini yetkazilgan zarar miqdorida, biroq belgilangan sug'urta summasidan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

6.4. Sug'urta tovonini to'lash yoki uni to'lashni rad etish uchun asoslar qonunchilik va mazkur Oferta qoidalariga muvofiq belgilanadi.

6.5. Sug'urtalovchi qonunchilik va mazkur Ofertada nazarda tutilmagan asoslarga ko'ra sug'urta tovonini to'lashni rad etishga haqli emas.

7. REGRESS TALABI

7.1. Sug'urtalovchi quyidagi hollarda yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan to'lagan sug'urta tovonini miqdorida regress tartibida talab qo'yish huquqiga ega:

- sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchining qasddan sodir etgan harakatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa;
- sug'urta hodisasi Sug'urta qildiruvchining qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergan bo'lsa;
- Sug'urta qildiruvchi tomonidan zararning oldini olish va (yoki) uning miqdorini kamaytirish bo'yicha choralarni qasddan ko'rmaslik natijasida zarar miqdori oshgan bo'lsa;
- Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ekti, sug'urta tavakkali, sug'urta hodisasi va uning oqibatlari to'g'risida oldindan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa.

7.2. Sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga sug'urta doirasida qoplangan zararni yetkazish uchun javobgar shaxsga nisbatan Sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lgan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida o'tadi.

7.3. Sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan unga tegishli bo'lgan talab qilish huquqi sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga Sug'urtalovchi tomonidan to'langan summa doirasida o'tadi.

7.4. Sug'urta tovonini olganda Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasining yuz berishiga aybdor shaxsga nisbatan regress tartibida talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart.

7.5. Agar Sug'urta qildiruvchi yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'ziga tegishli bo'lgan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki mazkur huquqni amalga oshirish Sug'urta qildiruvchining aybi bilan imkonsiz bo'lib qolsa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan to'langan sug'urta tovonni summasini qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8. OFERTAGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

8.1. Sug'urtalovchi qonunchilikdagi, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlarni, shuningdek o'z faoliyatini tashkil etish shartlarini inobatga olgan holda mazkur Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.

8.2. Ofertani yangi tahriri, agar Ofertaning yangi tahririda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, uning Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti va/yoki axborot tizimiga joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

8.3. Ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ular kuchga kirishidan oldin tuzilgan va amal qilib turgan Majburiy sug'urta shartnomalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

9. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

9.1. Majburiy sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, mazkur Oferta va Sug'urta polisida nazarda tutilgan asoslar va tartibda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

9.2. Majburiy sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti quyidagi tartibda qaytariladi:

a) agar Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchi tomonidan shartnoma shartlari buzilganligi oqibatida sug'urtadan muddatidan oldin voz kechsa, sug'urta mukofoti to'liq hajmda qaytariladi;

b) agar Majburiy sug'urta shartnomasi taraflarning kelishuviga ko'ra muddatidan oldin bekor qilinsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga sug'urta davrining o'tmagan qismiga mutanosib ravishda, Sug'urtalovchining ish yuritish xarajatlari uchun to'langan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi summa, shuningdek ilgari to'langan sug'urta tovonni summasi chegirilgan holda qaytariladi.

9.3. Agar Majburiy sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchi tomonidan shartnoma shartlari buzilganligi sababli Sug'urtalovchining tashabbusiga ko'ra muddatidan oldin bekor qilinsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

9.4. Majburiy sug'urta shartnomasi bekor qilinganda, agar sug'urta hodisalari bo'yicha Sug'urtalovchi tomonidan qanoatlantirilishi lozim bo'lgan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida talab qo'yilgan va/yoki Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonni allaqachon to'langan bo'lsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

10. NIZOLARNI HAL QILISH

10.1. Mazkur Oferta, Majburiy sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan va uning ijrosi bilan bog'liq nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

11. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va sug'urta mukofotining to'lanishi Oferta shartlariga to'liq va hech qanday e'tirozlarsiz rozilik bildirish — aksept hisoblanadi.

11.2. Sug'urta qildiruvchi Oferta shartlarini qabul qilishdan oldin u bilan tanishishi shart.

11.3. Agar Sug'urta qildiruvchi Ofertaning biror-bir shartiga rozi bo'lmasa, u Ofertani aksept qilmasligi va sug'urta shartnomasini tuzmasligi lozim.

11.4. Oferta aksept qilingan paytdan boshlab Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida mazkur Oferta shartlari asosida tuzilgan Majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi.

11.5. Mazkur Ofertada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda majburiy sug'urta sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.

SUG'URTALOVCHINING REKVIZITLARI:

To'liq nomi: «Imkon-Sug'urta» aksiyadorlik jamiyati

Yuridik manzili: Toshkent shahri, Mustaqillik xiyoboni, 17-uy

Elektron pochta manzili: info@imkonsugurta.uz

Rasmiy veb-sayt: www.imkonsugurta.uz

Telefon: 71 207 48 84